Jizzax viloyatida sanoat ishlab chiqarishi

2026-yil yanvar-sentabr oylari uchun

I. Jizzax viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari soni

II. Jizzax viloyatida sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari

III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

IV. Sanoat ishlab chiqarishi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar


I. Jizzax viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari soni

2026-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, viloyatda 2 365 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritmoqda. Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida korxonalarning asosiy qismi:

- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – 534 ta (23,7%);
- boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – 426 ta (18,9 %);
- kiyim ishlab chiqarish – 262ta (11,6 %);
- mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish–191 ta (8,5%);
- mebel ishlab chiqarish – 184 ta (8,2 %);
- to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – 117 ta (5,2 %);
- rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – 90 ta (4,0 %);
- boshqa faoliyat turlari – 445 ta (19,9 %) sohalariga to‘g‘ri keldi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida sanoat korxonalari ulushi

2026-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra



II. Jizzax viloyati sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan **37 972,4** mlrd so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **13,1** foizga o‘sdi.

	Hajmi, mlrd so‘m	Fizik hajm indeksi, % da
Jizzax viloyati	37 972,4	113,1
Jizzax sh.	11 778,4	114,8
hududlar:.		
Arnasoy	287,8	102,1
Baxmal	713,9	114,8
G‘allaorol	12 716,8	111,0
Sharof Rashidov	1 721,1	108,7
Do‘stlik	1 317,5	112,1
Zomin	1 893,6	119,4
Zarbdor	594,9	121,2
Zafarobod	1 500,6	115,4
Mirzacho‘l	582,4	113,5
Paxtakor	1 480,7	110,4
Forish	2 009,9	120,8
Yangiobod	217,4	109,1

**) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo‘shgan holda.*

Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:
Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari (oylik)
Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari (yillik)
Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi (oylik)
Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi (yillik)


Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi tahlil qilinganda G‘allaorol tumani (**67 102,6** ming so‘m), Jizzax shahri (**54 646,4** ming so‘m), Forish (**21 938,1** ming so‘m) va Zafarobod (**29 345,4** ming so‘m) tumanlarida viloyat o‘rtacha ko‘rsatkichi (**24 751,7** ming so‘m) dan yuqori natijalar qayd etildi.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati **110,9** % ni tashkil etgan bo‘lsa, Baxmal - **112,7** %, Zomin - **116,8** %, Zarbdor – **118,9** % va Forish tumanlarida **119,2** % ni tashkil etib, yuqori o‘sish sur’atlariga ega bo‘ldi.

[1])viloyatda yangi ishga tushirilgan davlat xususiy sherikchilik asosida faoliyat yuritayotgan elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi korxonalar hajmi qamrovini takomillashtirishni hisobga olgan holda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-sentabr oylarida




Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:
Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (yillik)
Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (oylik)

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, **36 793,4** mlrd so‘mni, fizik hajm indeksi **112,3** foizni tashkil etgan bo‘lsa, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda **285,9** mlrd so‘m (**89,4** %), elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashda **781,3** mlrd so‘m (**195,6** %) hamda suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda **161,8** mlrd so‘m (**81,4** %) ni tashkil etdi.

Seksiyalar bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi
2026-yilning yanvar-sentabr oylarida



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tarkibi 4 ta B, C, D, E seksiyadan iborat:
B - tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash;
C - ishlab chiqarish sanoati;
D - elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash;
E - suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishdan tashkil topgan.

III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda asosiy ishlab chiqarilgan mahsulotlar: yumshoq bug‘doy va spelta uni – 7 578,1 t, yangi so‘yilgan sovutilgan go‘sht – 446,3 t, O'simlik yog'i (tozalangan) – 659,0 tonna, paxtadan yigirilgan ip –25 619,6 t, Mashinada yoki qo‘lda to‘qilgan trikotaj polotnolar –3 545,3 t, paxta tolasi – 18 533,0 t, porshenli dvigatellarni ishga tushirish uchun qo‘rg‘oshinli akkumulyatorlar – 651,4 ming dona, portlandsement – 1 803 384,0 tonna.

Sanoat mahsulotlari	**2024-yil** yanvar-sentabr [1)]	**2025-yil** yanvar-sentabr [1)]	**2026-yil** yanvar-sentabr
Yumshoq bug‘doy va spelta uni - tonna	9 668,7	2 741,0	7 578,1
Yangi so‘yilgan sovutilgan go‘sht - tonna	440,4	758,5	446,3
O'simlik yog'i (tozalangan) -tonna	9 946,1	14 394,0	659,0
Paxtadan yigirilgan ip - tonna	26 604,5	28 515,7	25 619,6
Mashinada yoki qo‘lda to‘qilgan trikotaj polotnolar - tonna	1 661,0	2 402,6	3 545,3
Paxta tolasi – tonna	13 058,0	17 811,5	18 533,0
Kaliy sulfat- ming tonna K2O	14,680	14,138	12,319
Porshenli dvigatellarni ishga tushirish uchun qo‘rg‘oshinli akkumulyatorlar - ming dona	745,2	681,4	651,4
Portlandsement, tonna	1 617 066,8	2 412 997,0	1 803 384,0

[1)] 2024-2025-yillarning yanvar-sentabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma’lumotlar asosida shakllantirilgan


Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:
Ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (yillik)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – **14,1** %, to'qimachilik mahsulotlari, kiyim, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi – **10,4** %, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar, elektr uskunalar, boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar, boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish va mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish sohalarining ulushi – **54,5** % hamda kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – **3,6** foizni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi **0,7** foizni, o'rta-yuqori texnologiyali – **53,8** %, o'rta-quyi texnologiyali – **16,4** %, quyi texnologiyali – **29,1** foizni tashkil etgan.



Jizzax viloyatida ishlab chiqarilgan avtomobillar soni
yanvar-sentabr oylarida, donada

Sanoat mahsulotlari	2025-yil [1)]	2026-yil
Yengil avtomobillar, jami:	**46 490**	**65 681**
"KIA"	*19 633*	*24 801*
"Chery"	*6 882*	*7 221*
"Haval"	*6 245*	*6 953*
"BYD"	*13 730*	*26 706*

[1)] 2025-yilning yanvar-sentabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasi

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi **195,6** foizni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	**2024-yil** yanvar-sentabr[1)]	**2025-yil** yanvar-sentabr[1)]	**2026-yil** yanvar-sentabr
Elektr, gaz, bug' va havoni konditsiyalash , mln so‘m	**292 250,8**	**314 692,8**	**781 349,7**
shundan:			
Elektr energiyasi, bug' ta'minoti tizimlari va konditsionerlarni ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash	225 705,4	242 195,8	698 081,4
gazsimon yoqilg'ilarni ishlab chiqarish va tarqatish	66 545,4	72 496,9	83 268 ,2

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish sohasi

(yirik korxonalar tomonidan)

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, tozalash va tarqatish xizmatlari **4,0** foizga ko‘payishi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	**2024-yil** yanvar-sentabr [1)]	**2025-yil** yanvar-sentabr [1)]	**2026-yil** yanvar-sentabr
Suv ta'minoti; kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va yo'q qilish	**88 873,2**	**363 542,6**	**161 801,9**
suv yig'ish, tozalash va tarqatish mln so‘m	62 100,1	124 173,4	121 859,3
chiqindilarni yig'ish, qayta ishlash, olib tashlash va yo'q qilish, mln so‘m	26 773,1	239 369,2	39 942,6

[1)] 2024-2025-yillarning yanvar-sentabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma’lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to‘g‘risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo‘yicha shakllantirish O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (O‘zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug‘ va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va qayta foydalanish bo‘yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi.

Foydali havolalar

https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/855-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida

https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/865-sanoat-ishlab-chiqarishining-fizik-hajm-indeksini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika statistikasi bo‘limi

Ijrochi:
S. Sultonova
+998 72 221-51-13 (2510)

Manzil: